

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI TALABALAR  
BO'LIMINI WEB SAYTINI ISHLAB CHIQUISH**

***Rasulmuhammedov M.M.***

*Toshkent Davlat transport universiteti Transportda axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasida professori.*

***Nurmuhammedov T.R.***

*Toshkent Davlat transport universiteti Transportda axborot tizimlari va texnologiyalari kafedrasida professori.*

***Uralov N.B***

*Toshkent Davlat transport universiteti MAT -2 guruhi  
2-kurs magistr talabasi;*

**Annotation:** Within the information circuit, information about management goals, the state of the managed process, and management effects is shared and transmitted. The information circuit, together with the means of collecting, transmitting, processing and storing information, as well as information processing personnel, constitutes the information system of this organization. This system is dynamically developing, because information undergoes changes, its speed depends on the tasks performed by the organization. As information entering the information system, the sources of information forming the information and the data collection system are considered. As the outgoing information, the system of decision-making and adoption, that is, the purposeful use of information, is analyzed. Therefore, the information system is interconnected with the system of primary collection of information and its secondary use.

**Annotatsiya:** Axborot konturi doirasida boshqarish maqsadlari haqida, boshqariluvchi jarayon holati haqida, boshqaruvchi ta'sirlar haqida axborotga ega bo'linadi va uzatiladi. Axborot konturi axborotlarni yig'ish, uzatish, qayta ishlash va saqlash vositalari, shuningdek, axborotlarni ishlovchi xodimlar bilan birgalikda mazkur tashkilotning axborot tizimini tashkil etadi. Bu tizim dinamik rivojlanuvchidir, chunki axborot o'zgarishlarga uchraydi, uning tezligi tashkilot bajarayotgan vazifalarga bog'liq. Axborot tizimiga kiradigan ma'lumot sifatida axborotni shakllantiruvchi axborot manbalari va ma'lumotlarni yig'ish tizimi ko'rib chiqiladi. CHiqadigan axborot sifatida esa qarorlarni shakllantirish va qabul qilish, ya'ni axborotdan maqsadli ravishda foydalanish tizimi tahlil etiladi. Demak, axborot tizimi axborotni boshlang'ich yig'ish va undan ikkilamchi foydalanish tizimi bilan o'zaro bog'liq.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim muassasalari, Xodimlar bo'limi, Talabalar bo'limi,

O‘zbekiston Respublikasidagi barcha oliy ta’lim muassasalarida tabalar bilan ishlovchi talabalar bo‘limlari mavjud bo‘lishadi. Talabalar bo‘limi ishchilari uchun shtatlar ajratiladi. Talabalar bo‘limi universitetning Xodimlar bo‘limi tarkibida bo‘ladi. Quyida oliy ta’lim muassasalaridagi talabalar bo‘limining asosiy vazifalari va majburiyatlari Toshkent davlat transport universiteti misolida tushuntirib o‘tilgan.

Talabalar bo‘limi Toshkent davlat transport universitetining xodimlar bo‘limi tarkibida bo‘lib, universitetda talabalarga oid shaxsiy xujjatlari ma’lumotlarni yig‘ish va ularni qayta ishlash, talabalarga oid barcha shaxsiy ish xujjatlarini yuritishda rahbarlik qiladi va ularning nazoratini olib boradi.

Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Oliy ta’lim to‘g‘risidagi Nizom, universitet Nizomi, Mehnat Qonunchiligiga oid me’yoriy - huquqiy hujjatlarga, universitet rektori buyruqlariga, ko‘rsatmalariga, yo‘riqnomalariga hamda mazkur nizomga amal qiladi va o‘z navbatida Toshkent davlat transport universitetining xodimlar bo‘limining asosiy tarkibiga kiradi.

Universitet miqyosida yoki dekanatlar o‘rtasida axborot almashinuvini ta’minlash maqsadida barcha ma’lumotlarni elektron ko‘rinishda saqlash hozirgi kunda asosiy masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Biz yaratmoqchi bo‘lgan ma’lumotlar bazasi va uni boshqaruvchi dastur ham universitetdagi talabalar ma’lumotlarini saqlash, o‘zgartirish, uzatish, qabul qilish va o‘chirish kabi qator vazifalarni amalga oshirishga mo‘ljallangan. Har qanday ma’lumot bazada saqlanadi va ixtiyoriy paytda uni izlab topishda va foydalanishda qulay imkoniyatlar yaratiladi. Ushbu dastur yaratuvchisi tomonidan ma’lumotlar xavsizligi ta’minlanadi va tegishli shaxslargagina ularni ko‘rish va o‘zgartirish uchun ruxsat beriladi, chunki universitetdagi talabalar haqidagi ma’lumotlar juda muhim hisoblanadi.

Talabalar ma’lumotlari bazasi bilan ishlovchi dastur universitetdagi talabalar uchun quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Talabalar haqidagi barcha ma’lumotlarda qulay shaklda bazaga kiritish va o‘zgartirish;
- Talabalarni kerakli xujjatlarini elektron ko‘rinishda saqlash;
- Har bir talabaning shaxsiy ma’lumotlarini ruxsat berilgan dekanatlar tomonidan ko‘rish va o‘zgartirish;
- Fakultet dekanlari uchun qo‘l ostidagi talabalar haqida to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- Fakultet raxbari uchun barcha talabalarining umumiy ma’lumotlari haqida to‘liq tasavvurga ega to‘liq bo‘lish va ularning ota onalari bilan bog‘lanish;
- Talabalar bo‘limi uchun talabaning o‘qishga kirishidan tortib, bu talabaga tegishli bo‘lgan barcha buyruqlar, qarorlar, mukofotlar haqida elektron xujjatlarni bazaga kiritib borish va ixtiyoriy vaqtda undan foydalanish;


- Yuqori tashkilotlarga talabalar haqida ixtiyoriy ko‘rinishdagi: universitetdagi umumiy talabalar soni, o‘g‘il va qizlar soni, turmushga chiqqan yoki chiqmagan, oilalilar va hokazolar haqida tezkor va ishonchli hisobotlar yaratish;

- Barcha talabalar uchun shaxsiy xujjatlarini elektron ko‘rinishda masofadan turib olish va kerakli tartibda foydalanish;

- Va boshqalar;


Bir so‘z bilan aytganda, oliy ta‘lim muassasalarida zamonaviy axborot tizimlaridan foydalangan holda qulay shart-sharoitlar yaratish va xodimlar bo‘limi ishlarini engillashtirishda ushbu dastur muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalar ma‘lumotlari bazasi bilan ishlovchi dastur yaratilishidan oldin ma‘lumotlar bazasini shakllantirish ishonchli ma‘lumotlar bazasini boshqarish tizimi(MBBT) tanlanishi juda muhim. Hozirgi kunda eng ko‘p foydalanilayotgan MBBTlardan biri MySQL hisoblanadi. MySQL MBBT har tomonlama ishonchli va xavsizdir va uni tushirish uchun bizga Denver dasturi kerak bo‘ladi. Denver dasturini shaxsiy kompyuterga o‘rnatamiz va uni ishga tushiramiz. Brauzerga kirib,localhost orqali MySQL dasturiy muxiti bilan tanishamiz (2-rasm).



**2-rasm. MySQL MBBT muhitining umumiy ko‘rinishi**


MySQL MBBT yordamida xodimlarning ma‘lumotlar bazasini va kerakli jadvallarni yaratish orqali barcha ma‘lumotlarni kiritish imkonini beruvchi bazaviy muhit shakllantiriladi (3-rasm).



3-rasm. Universitet talabarlari bazasini yaratilishi

Talabalar bo‘limi ma’lumotlar bazasi shakllantirildi va undagi jadvallar 4-rasmdagi kabi ko‘rinishda bog‘langan. Bu esa xodimlar haqidagi to‘liq ma’lumotlarni qulay ko‘rinishda saqlash imkonini beradi.

Talabalar ma’lumotlari bazasi bilan ishlovchi dasturni ishga tushirganimizda quyidagi ko‘rinish hosil bo‘ladi. Bunda, universitetning nomi “Toshkent temir yo‘l muhandislari universiteti” uning rasmiy logotipi va tizimga kirish uchun foydalanuvchining login paroli keltirilgan. Ushbu dastur ma’lumotlar bazasi bilan ishlovchi dastur bo‘lib, bir kishi admin tomonidan boshqariladi va universitetda 4ta fakultet dekanatlari foydalanishi uchun ruxsat beriladi. Har bir dekanatning tizimga kirish uchun shaxsiy login va paroli mavjud bo‘ladi. Talabalarning ma’lumotlari xavfsizligi ta’minlanadi. Quyida INDEX.PHP oynasida tizimga kirish oynasining ko‘rinishi keltirilgan.



4-rasm. Talabalar ma'lumotlar bazasini boshqaruv tizimiga kirish oynasi

HOME.PHP oynasida foydalanuvchi shaxsiy login va parolini kiritgandan so'ng tizimga kiriladi. Talabalar bazasi bilan ishlash oynasi ochiladi (5-rasm). Ushbu oynada asosiy amallar bajariladi. Birgina [+ Add New](#) Add New menyusi orqali talabalarni umumiy ma'lumotlarini ma'lumotlar bazasiga kiritishimiz mumkin va kerakli ma'lumotlarni [Excel](#) Microsoft office excel dasturida hisobot ko'rinishida yuklab olishimiz mumkin, keraksiz malumotlarni ham o'chirib yuborish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

FIO	FUQAROLIGI	MILLATI	PASSPORT	OTMGA KIRGANYIL	ACTION
Pulatov Nodir Aksher o'g'li	O'zbekiston	O'zbek	AA 122245	2014	<a href="#">Edit</a> <a href="#">Delete</a>
Alimov Erkin Aziz o'g'li	O'zbekiston	O'zbek	AA 124587	2014	<a href="#">Edit</a> <a href="#">Delete</a>
Xakimova Nargiza Farhod qiz	O'zbekiston	O'zbek	AA 124557	2014	<a href="#">Edit</a> <a href="#">Delete</a>

BLOCK-NAV.PHP menyular satri, ushbu menyular satrida Home, Fakultetlar, Talabalar, Info, Chiqish menyulari o’rin egallagan.

Home bu asosiy oyna hisoblanib asosiy vazifani bajaradi.

FIO	FUQAROLIGI	MILLATI	PASSPORT	OTMGA KIRGANYIL	ACTION
Pulatov Nodir Alisher o'g'li	O'zbekiston	O'zbek	AA 122245	2014	<a href="#">Edit</a> <a href="#">Delete</a>
Alimov Erkin Aziz o'g'li	O'zbekiston	O'zbek	AA 124587	2014	<a href="#">Edit</a> <a href="#">Delete</a>
Xakimova Nargiza Farhod qizi	O'zbekiston	O'zbek	AA 124557	2014	<a href="#">Edit</a> <a href="#">Delete</a>
Olimova Nargiza Farhod qizi	O'zbekiston	O'zbek	AA 124587	2014	<a href="#">Edit</a> <a href="#">Delete</a>
Olimov Eldor Aziz o'g'li	O'zbekiston	O'zbek	AA 124587	2014	<a href="#">Edit</a> <a href="#">Delete</a>

9-rasm.Universitet talabalar malumot bazasi

Fakultetlar menyusi – ushbu menyuda universitet tizimida mavjud bo’lgan, tizimga kirish huquqiga ega fakultetlar boshqaruvchiga ko’rinib turadi.

FAKULTET	TALABALAR SONI
Iqtisodiyot	1
TTE va TL	3
Elektromexanika	1
Qurilish	1

10-rasm.Fakultet talabalari soni haqida ma’lumot

Talabalar menyusi – ushbu menyuda talabalar ma’lumotlar bazasida qaysi fakultetda qancha nafar talaba bor ekanligi fakultet nomlari bilan birga boshqaruvchiga ko’rinib turadi.




BLOCK-SIDEBAR.PHP bo'limi asosiy oynaning chap qismida joylashgan bo'lib, bir nechta menyuslarni o'z ichiga oladi. Asosiy, Users, Kafedralar, Ta'lim yo'nalishlari, Import.Export\*xls menyuslari.

Asosiy – menyusni ham xuddi home singari bir xil vazifani bajaradi, ya'ni asosiy amallarni bajarish oynasi.


Users-ushbu menyuda foydalanishi mumkin bo'lgan foydalanuvchilari ro'yxati keltirilgan.

Kafedralar – bu menyuda oliy ta'lim muassasasida mavjud barcha kafedralar ro'yxati keltirilgan.




12-rasm.Universittdagi kafedralar ro'yxati

Ta'lim yo'nalishlari – menyusida ham oliy ta'lim muassasida hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan kafedralar ro'yxati keltirilgan.



13-rasm.Ta'lim yo'nalishlarining umumiy ko'rinishi


Import.Export\*xls - menyusida ma'lumotlar bazasiga boshqaruvchi tomonidan kiritilgan talabalarni ma'lumotlari bazasini excel formatda eksport qiladi va csv formatdagi tayyor talabalar ma'lumotlarini o'zida import qiladi.



8-rasm.Sidebar-menu

TABLE.PHP qidiruv oynasi – ushbu oynada zarur holatlarda kerakli talabalar ma'lumotlarini izlash imkoniyatiga ega bo'amiz.

TABLE.PHP



11-rasm.Talaba qidirish tizimi



### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Rob Larsen. Beginning HTML & CSS. Wiley Publishing, Inc. Indianapolis, Indiana, 2013.

2. Zokirova T.A., Sharipov B.A., Rasulova N.A. "Web - dasturlash" fanidan o‘quv qo‘llanma – T.: TDIU, 2009. – 2166

3. Робин Никсон.Создаем динамические веб-сайты с помощью PHP, MySQL, JavaScript, CSS и HTML5. Учебное пособие. Издательство Питер. 2017.- 768с. 5. Тузовский А.Ф..Проектирование и разработка web-приложений. Учебное пособие для прикладного бакалавриата. Издательство Юрайт.2018.- 218с. Q

4.O‘zbekiston respublikasi prezidentining 2017–2021-yillarda O‘zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 02.03.2020dagi PF–5953-sonli farmoni.

5. O‘zbekiston respublikasi prezidentining raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida 21.11.2018-yildagi PQ–4022 qarori.

6. Технологический процесс склада вагонного депо при автоматизации учетных операций. Т.Р. Нурмухамедов, Ж.Н. Гулямов – Sustainable development forum, 2022

7. Development of the information system for inventory control of wagon depot stock. T.R. Nurmukhamedov, J.N. Gulyamov, T.S. Tashmetov – AIP Conference Proceedings, 2022.

8. Modeling of a railway warehouse commodity and material values accounting (on the example of a train depot). T.R. Nurmukhamedov, Z.N. Gulyamov, S.T. Shaxidaeva – AIP Conference Proceedings, 2021.

9. Складские операции вагонного депо пассажирской службы с элементами логистики. Т.Р. Нурмухамедов, Ж.Н. Гулямов – Глобус: технические науки, 2021